TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 4-fevral | 17-10-212-Q/25 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 15-yanvardagi “Toshkent tumani hududidan Energetika vazirligiga yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 23-10-0-Q/25-son qarori to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 15-yanvardagi “Toshkent tumani hududidan Energetika vazirligiga yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 23-10-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 15-yanvardagi “Toshkent tumani hududidan Energetika vazirligiga yer maydoni ajratish to‘g‘risida”gi 23-10-0-Q/25-son qarori** ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani Qirariq MFY hududidagi xo‘jalik xaritasining 2400q, 2401-konturidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan davlat zaxirasidagi 0,5 gektar hamda 1936q, 2422q, 2423q, 2833q, 2834q-konturlardagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan davlat zaxirasidagi 0,5 gektar, jami 1,0 gektar yer maydoni Energetika vazirligiga loyiha quvvati 100 kVt bo‘lgan mikro GESlar qurilishi uchun doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilganligi inobatga olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) ushbu qarorga muvofiq belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**